

## OVOZ BUZILISHIDA O'YINLI METODIKALARNING AHAMIYATI

Kimyo international university in Tashkent

Maxsus pedagogika yo'naliishi

Najmetdinova Mohinur Hamza qizi

3-kurs talabasi

## Annotatsiya

Ushbu maqolada ovoz buzilishlari va o'yinli metodikalarning ahamiyati va ovoz buzilishlarining kelib chiqish sabablari haqida yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** ovoz o'yin, tovush, tebranish, nutq, buzilish, ovoz kuchi, baland past, fizialogik, mutatsion metodik.

**Kirish**

Ovoz - bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig'indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo'ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin. Biz qanday tovushni olmaylik, barchasi fizik hodisa bo'lib, akustikada o'rganiladi. Tovush yaxshi o'rganilgan bo'lib, uni bo'lib, uning qonuniyatlari aniqlangan. Kuylovchi yoki nutqiy ovozning birgina tovushi ham akustik ahamiyatga egadir. Uni bilgan holda ovozning kerakli xususiyatlarini yuzaga keltirish mumkin. Tovush deganda, akustikada tebranish va to'lqinlarning zikh muhitda tarqalishi tushuniladi. Ovoz tovushi to'lqin ko'rinishida havo qismlarining tebranishidir. Bu to'lqinlar ovoz boylamlarida yuzaga kelib, ularni bir-biriga yaqin joylashgani, tarangligi natijasida havo oqimi o'tib, boylam osti bosimi yuqori va nerv impulslarining ta'sirida tebranish yuzaga keladi. Tovush to'lqinlari kekirdakda hosil bo'lib, faqat tashqariga emas, organizmning ichki to'qimalarida ham tarqalib, bosh, bo'yin, ko'krak to'qimalarida tebranish hosil qiladi, shunga ko'ra ovoz to'lqinlarning bir qismigina tashqarida tarqalib eshituvchining qulog'iga yetib boradi.

**Ovoz buzilishlari,** nutq tizimi shakllanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Faqtgina ilk davr og'ir patologiyasigina nutq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ba'zan nutq shakllanishiga qadar kasallikka chalingan bolalarda kuzatilishi mumkin. Ko'plab

o‘tkazilgan operatsiyalar, ovoz yo‘qligida tabiiy yo‘llar orqali nafas olishning buzilishi bolaning somatik zaifligini keltirib chiqaradi, hamda psixik va nutqiy rivojlanish sustlashishi, his-hayajonli iroda doirasidagi nuqsonlarga sabab bo‘lishi mumkin. Bolalar o‘zlarining nuqsonlarini sezib, muloqotga tez kirishmaydigan qaysar, o‘zini tuta olmaydigan bo‘lib qoladilar. Ular to‘g‘ri tovush talaffuzini qiyinchiliklar bilan o‘zlashtiradilar. Ovoz buzilishlarining nisbatan yengil holatlarida bolalar o‘z kamchiliklariga xotirjam munosabatda bo‘ladilar. Ba’zilari esa o‘z kamchiliklariga tanqidiy munosabatda bo‘ladilar, hamda uni bartaraf etishga intiladilar.

Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalarning ko‘pchiligida ovozning xirillashi kuzatiladi. Buning sababi – nutqda va ashula aytishda noto‘g‘ri foydalanishdir. O‘qituvchining baland va qattiq ovoz bilan gapirib o‘quvchilarga shaxsiy namuna ko‘rsatish natijasida o‘quvchilar ham shunday baland va qattiq ovozda javob berishga odatlanadilar. Bu ovoz buzilishlarini kelib chiqishi uchun birinchi turtki bo‘ladi. Bola ovozini tiklash bo‘yicha ishni boshlashdan avval bola haqidagi anamnezistik ma'lumotlarni olish, shuningdek, klinik psixologo-pedagogik va logopedik tekshirishlarning natijalarini bir tizimga solish va umumlashtirish lozimdir. Bolaning ovozi va nutqi magnit lentasiga, nafas olishi esa kimografga yoki elektroensefalografga yozib olinadi. Bo‘g‘iz kasalliklariga ega bo‘lgan bolalarga organizmning astenik holati bo‘g‘izning nerv-muskul apparatining tuzil tuzilishida va funksiyasida turli o‘zgarishlar, emotSIONAL-iRODA sferasining buzilishlari, nutq taraqqiyotining sustlashishi va ovoz funksiyasining uzoq davom etuvchi buzilishlari kuzatiladi. Bu ma'lumotlar bolaning rivojlanish xususiyatlarini ochishga, boshlang‘ich nuqtasi psixoterapiya bo‘lgan ovozni tiklash ishining yo‘llarini va vositalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

---

**Ovozni past va baland chiqara olish malakasini xosil qilish o‘yini. Maqsad:**

Bolalarni ingichka va past ovozda gapirishga o‘rgatish. Metodik ko‘rsatma. bolalar baqirmsadan, tinch oxangda, kerak bo‘lganda ovozni balandlatib, pastlatib gaplashishlari logoped esa nazorat qilib turishi kerak. Bola bilan yonma yon o‘tiriladi

va diqqati mashg‘ulotlarga qaratiladi.“Kim qanday qichqiradi?” o‘yini xikoyasi. Xikoyaning qisqacha mazmuni. Logoped o‘zining xikoyasini, xikoya mazmuniga talluqli bo‘lgan shakllarni (o‘yinchoq) yoki o‘yinchoq rasmlarini flannelografda ko‘rsatib berish bilan boshlaydi: Ertalab biz oilamiz bilan dalaga sayr qilgani chiqdik. Qulog‘imizga nimaningdir ingichka ovozda “pi-pi”deb (ingichka ovozda talaffuz etadi) ovoz chiqarayotgani eshitildi. Qarasak bu chumchuqning bolasi-chumchuqcha ekan.U daraxtga qo‘nib, onasini qidirib chaqirayotgan ekan. U onam menga qachon qurt,chuvalchang olib keladilar deb, ingichka ovozda chiyillar edi.Qushcha qanday chiyillar ekan? “bolalar ingichka ovozda chumchuqchaning “pi-pi” deb ovoz chiqarishiga taqlid qiladilar. Birdaniga ona chumchuq uchib keladi,uning og‘zida chuvalchang bor edi, u chuvalchangni bolasiga (qushchaga) berdi va past ovozda “pi-pi deb ovoz chiqarib qo‘ydi”. Logoped past ovozda talaffuz etadi.Ona chumchuq qanday ovoz chiqaradi?(Bolalar “pi-pi”deb juda past ovozda talaffuz etadilar).Qush uchib ketganidan keyin biz sayrimizni davom ettirdik. Biz bir poliz oldidan chiqib qoldik.U yerda qayerdandir ingichka “miyov-miyov” degan ovoz kelar edi.Bu ovoz mushukchaniki ekan. U bizni ko‘rib oldimizga yugurib keldi. U qanday miyovlaydi?( Bolalar mushukchaning ovozini ingichka ovozda talaffuz etadilar). U onasi ona mushukni qidirib yurgan ekan. Ona mushuk bolasini mushukchaning ovozini eshitib,yugurib keldi va past ovozda “miyov-miyov”deb bolasini erkabal quydi.Ona mushuk qanday miyovlaydi? Bolalar past ovozda ona mushuk ovoziga taqlid qiladilar, “miyov-miyov”. Endi,bolalar,men xozir sizlarga guruhimizga kimlar mexmon bo‘lib kelganini ko‘rsataman. Logoped boshqa xonadan katta mushik (ona mushuk) o‘yinchog‘ini olib keladi va stol ustida yurgizadi. Bolalardan so‘raydi: “Ona mushuk qanday miyovlaydi?” (Bolalar ovozlarini pasaytirib, “miyov-miyov”deb aytadilar). So‘ngra mushukchani,ona chumchuq (qush), chumchuqchani ko‘rsatadi, bolalar ularning ovozlarini taqlid qiladilar.

**Ovoz kuchini o‘zgartirish o‘yini.** Maqsad: Bolalarni vaziyatga qarab baland va past ovozda foydalanishga o‘rgatish. Metodik ko‘rsatma: Logoped bolalarning ovoz kuchini o‘zgartirishlariga e’tibor berib borish kerak.

### “Shamol esyapti” o‘yini.

O‘yining qisqacha mazmuni. Bolalar stulchalarda yarim doira shaklida o‘tiradilar, logoped shunday deydi: Biz yozda o‘rmonga sayrga bordik. Dala bo‘ylab ketyapmiz, quyosh oltin nurlarini har tomonga sochyapti, yengil shamol esib o‘tlarni, gullarni tebratyapti. Shamol sekin esyapti, mana bunday: u-u-u, (logoped “u”tovushini sekin va cho‘zib talaffuz etadi). Mana bog‘chaga ham yetib keldik. Bizlar ko‘plab gullar, mevalar terdik va bog‘chaga qaytmoqchi bo‘ldik. Birdaniga kuchli shamol esa boshladi. Shamol qattiq g‘uvillay boshladi: u-u-u...(tarbiyachi bu tovushni baland va uzoq talaffuz etadi). Bolalar tarbiyachiga taqlid qilib, yengil va kuchli esayotgan shamolning ovozini takrorlaydi. So‘ngra tarbiyachi rasmlarni ko‘rsatadi, bolalar esa rasm tasviriga qarab, unga taalluqli bo‘lgan ovoz kuchida shamolning ovoziga taqlid qiladilar.

Osoyishta (past)ovozdan foydalanish malakasini tarbiyalash. O‘yining qisqacha mazmuni: Bolalar doira bo‘lib yuradilar, o‘rtada mushuk roolidagi bola o‘tiradi.

Metodik ko‘rsatma: Bola ovozi juda baland ham, past ham bo‘lmasligi zarur. Bolalar yura turib quyidagi she’rni past ovozda aytadilar:

Sekin sichqonlar, sekin sichqonlar Tom boshida mushuk bor Sichqon, sichqon, extiyot bo‘l! Mushuk seni tutmasin! Mushukni tasvirlovchi bola she’r matnini tugatishi bilan baland ovozda miyovlaydi va bolalar ketidan quvadi. Ushlangan bola mushuk buladi. Past va baland ovozdan foydalanish malakaschini tarbiyalash.

Maqsad: Bolalarni past va baland ovozda gapirishga o‘rgatish.

Metodik ko‘rsatma: Bolalar o‘rtoqlarining ismini aytib chaqirganlaridan keyin pauza qilishlari, “Aks-sado” ga aytgan so‘zlarni takrorlash uchun imkoniyat berishlari kerak.

### “Aks-sado” o‘yini.

O‘yining qisqacha muzmuni: Bolalar 2 guruxga ajiratiladi. Birinchi guruh bolalari o‘rmonda adashib qolgan bolalarni, ikkinchi gurux bolalari aks-sadoni tasvirlaydilar. Har bir guruh xonaning turli burchagiga joylashadi. O‘rmonda adashib qolgan bolalarni tasvirlovchi guruh bolalari boshqa guruhdagi bolalarni (aks-sado

guruhidagi bolalarni) ismini baland ovozda aytib chaqirishadi: “Au,Olima! Au,Po‘lat!” Aks sadoni tasvirlovchi bolalar xuddi shu so‘zlarni past ovozda takrorlashadi. So‘ngra qatnashchilari rol almashinadilar.

### “Baland-past” o‘yini.

O‘yinning borishi: Bolalar soniga qarab 2-3 juft o‘yinchoq olinadi. Past tovushga taqlid qilganda shivirlashga o‘tib ketmaslik kerak. Tarbiyachi katta va kichik kuchukchalarni ko‘rsatib, bolalarga shunday deydi: Katta kuchuk vovilaganda baland ovozda akillaydi vov-vov-vov. Katta kuchuk qanday akillagan ekan. Bolalar baland ovozda vov-vov deb aytadilar. Tarbiyachi o‘yinni davom ettirib, shunday deydi: Kichkina kuchukcha past ovozda akillaydi vov-vov. Kichkina kuchukcha qanday ovozdaakkilar ekan.Bolalar past ovozda vov-vov deb aytadilar. Tarbiyachi har ikkala kuchuk o‘yinchog‘ini olib qo‘yadi va shunday deydi: Xozir juda ham diqqat bilan qulqoq solib o‘tiringlar. Kuchuk paydo bo‘lishi bilan siz vov-vov deb aytasiz, ammo adashib ketmaganlar, katta kuchuk baland ovozda akillaydi, kichkina kuchuk past ovozda akillaydi. Xuddi shu tarzda boshqa o‘yinchoqlar bilan o‘yin o‘tkaziladi.

Bolalarni gavdani to‘g‘ri tutishga o‘rgatish lozim va gavdani tutishdagi kamchiliklarini yo‘qotish muhimdir. Chunki bu kamchiliklar nafas va ovoz muskulaturasini zo‘riqish holatini keltirib chiqaradi va bu ham ovoz buzilishiga olib keladi.. Ovozdan noto‘g‘ri foydalanishning sababi noto‘g‘ri rahbarlik ostida xorda qo‘sinqaytish yoki o‘qish ham bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri qo‘sik aytish ovoz va nutqni tarbiyalash va rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Qo‘sinqaytish estetik histuyg‘u va jamoa aloqalarini rivojlantiradi. Qo‘sinqaytish salomatlik uchun ham foydalidir: chunki qo‘sinqaytish vaqtida nafas olish intensiv bo‘ladi, nafas muskulaturasi mustahkamlanadi, yurak faoliyati va moddalar almashinuviga yaxshilanadi. Agar qo‘sinqaytish bola uchun jismoniy jihatdan qiyin bo‘lsa, uni o‘z vaqtida shifokorga ko‘rsatish lozim. Chunki bu turli kasalliklarning natijasi bo‘lishi mumkin. Mutatsion davr ota-onalar va o‘qituvchilarni bolalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlarini talab qiladi. Bunda ovoz diapazonining kuyi registrida ovoz mashqlari o‘tkazish lozim.Bu davrda ovozda.buzilishlarining kelib chiqishi ehtimoli o‘qituvchi

e'tiboridan chetda qolmasligi zarur. Ovoz buzilishlarini oldini olish uchun ovozdan tabiiy nutq registrida, tabiiy diapazonda va o'rtacha balandlikda foydalanish prinsipial jihatdan zarurdir. Ovoz o'z kuchi va balandiligi jihatdan individual fiziologik imkoniyatlardan oshmasligi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoyilgan Davlat talablari" OZRXTB. MMXQTMORO MM 2012
2. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent.
3. Q.S.Shodieva. "O'rta guruh bolalar nutqini o'stirish" .Qo'llanma.1993 yil.
4. Q.S.Shodieva. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzini tarbiyalash".Qo'llanma.1995 yil.
5. R.Shomaxmudova. L. Mominova "Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish".Qollanma 1993 yil
6. Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L.R. Bog'cha va kichik mакtab yoshidagi bolalar nutqidagi nuqsonlarni tuzatish,- T.: "O'qituvchi" 1993 y
7. Maxsus pedagogika.Lola Mo'minova.Toshkent.
- 8 .AyupovaM.Logopediya.